

TOSHKENT SHAXAR
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

MUSTAQIL ISH

MAVZU: NITROFURAN, OKSIXINOLIN VA NAFTIRIDIN UNUMLARI

BAJARDI: Ulashov Farid
farmatsiya, 4 kurs 3/1 gurux
TEKSHIRDI: Yusupova Dilfuza
katta o'qituvchi

TOSHKENT – 2014

Reja.

I KIRISH.

II Dori preparatlarining asosiy farmakologik xossasi.

Dori moddalar tasnifi.

Dori moddalarni nojo'ya ta'sirlari.

III Xulosa

NITROFURAN, OKSIXINOLIN VA NAFTIRIDIN UNUMLARI

Nitrofurantar. Nitrofurantar 5-nitrofuranning ikkilamchi unumlari bo'lib, nitroguruh hisobiga bir qator mikroorganizmlarga bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi. Ushbu birikmalarni S.A. Geller boshchiligida Latviyalik kimyogarlar sintez qilishgan. Nitrofurantar o'z farmakologik ta'siri va ishlatilishi bo'yicha sulfanilamidlarga yaqin turadi. Kimyoterapevtik spektri bo'yicha ular grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarni(stafilakokk, streptokokk, enterokokk, ichak tayoqchasi, qorin tifi tayoqchasi, salmonellalar, shigellalar, paratif va dizentriya bakteriyalari, zamburug'lar, viruslar) o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, nitrofurantar bu jihatdan sulfanilamidlardan ustun turadi. Nitrofurantar katta kontsentratsiyada bakteritsid ta'sir ko'rsatadi. Nitrofurantarning mikroorganizmlarga bo'lgan bu xil ta'siri degidrogenaza fermentining tormozlanishi va oksidlanish-qaytarilish jarayonida qatnashishining chegaralanishi bilan izohlanadi. Buning natijasida mikroorganizmlarning energetik balansi, hujayra hayoti o'zgaradi.

Nitrofurantar ta'sirining ijobiy tomonlaridan biri shuki, ular sulfanilamid va antibiotiklarga chidamli bo'lgan yuqumli kasalliklarda ham naf ko'rsatadi. Allergiya holatini deyarli keltirib chiqarmaydi. Nitrofurantar ta'siriga mikroorganizmlarning o'rganib qolishi sekin-asta yuzaga chiqishi mumkin. Ko'pchilik preparatlar mahalliy ta'sir ko'rsatib, yaraning bitishini tezlashtiradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, ayrim nitrofurantar tanada metabolizmga uchramagani uchun buyrak orqali chiqayotganida o'z antibakterial xususiyatini saqlaydi. Shuning uchun ham ular peshob yo'llarining yallig'lanishi bilan bog'liq xastaliklarda uro'antiseptik sifatida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, ular jarrohlik, ginekologiya, gastroenterologiyada kimyoterapevtik va antiseptik preparatlar sifatida tavsiya etiladi. Masalan, yiringli va anaerob infektsiyada, teri yiringli kasalliklarida, anginada, kon'yunktivitda, dizenteriyada, ovqat toksikoinfektsiyasida, enterokolit, osteomielit, peritonit, sepsisda, lyablioz, trixomonoz va boshqalarda beriladi.

Nitrofurantarni uzoq muddat davomida qo'llash tavsiya etilmaydi. Chunki ular noxush holatlarning (ko'ngil aynishi, qayt qilish, ishtahaning yo'qolishi, qorinda og'riq sezish va hakovolar) sababchisi bo'lishi mumkin. Shuning uchun nitrofurantarni 7-14 kun davomida berish maqsadga muvofiq.

Furatsilin nitrofuran preparatlari orasida keng ishlatiladigan antiseptik preparat hisoblanib; 0, 02 % eritma sifatida og'izni chayish, yaralarni yuvish uchun qo'llaniladi. O'tkir dizenteriyada 0, 1 g dan ichish uchun ham beriladi.

Furadonin va *furagin* asosan peshob yo'llari infeksiyasida, furazolidon esa trixomonadoz, lyamliazda ham keng ishlatiladi. Keltirilgan preparatlarni antibiotiklar (penitsillin, streptomitsin, levomitsetin va boshqalar) bilan qo'shib berilsa, ta'sir samarasi ancha oshadi.

Oksixinolin va naftiridin unumlari.

8-oksixinolin unumlariga kiruvchi preparatlar o'z farmakologik ta'siri bo'yicha nitrofuran va sulfanilamidlarga yaqin turadi. Ular ham grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga bakteriostatik ta'sir etadi. Bundan tashqari, parazitlarga va patogen zamburug'larga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu guruhga kiruvchi preparatlar kimyoterapevtik va antiseptik dorilar sifatida tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladi.

8-oksixinolin unumlaridan tibbiyotda keng ma'lum preparatlardan 5-NOK hisoblanadi. U 5-nitro-8-oksixinolin (nitroksolin) bo'lib, antibakterial ta'sir etish doirasi ancha keng doridir. Preparatning ayrim patogen zamburug'larga ham ta'siri bor. Ushbu dori preparatining xususiyatlaridan biri shuki, u ichak orqali yaxshi va tez so'rilib, tanada metabolizmga uchramay, peshob yo'llarida mikroorganizmlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham 5-NOK asosan buyrak va peshob yo'llarining kokklar keltirib chiqargan yallig'lanishida (pielonefrit, sistit, uretrit, prostatit va boshqalar) ahamiyatlidir. Preparat noxush holatlarni deyarli keltirib chiqarmaydi. Ba'zan ko'ngil aynashi, ishtahaning yo'qolishi, ayrim hollarda esa allergiya alomatlari yuz beradi.

Ushbu guruhga kiruvchi xiniofon va boshqa bir qator preparatlar asosan protozoylarga (bezgak, dizenteriya), zamburug' kasalligiga qarshi va antiseptik (xinozol) dori sifatida yaralarni yuvish, chayish maqsadida ishlatiladi.

Naftiridin unumlari guruhiga taaluqli ancha kuchli antibakterial ta'sirga ega bo'lgan preparatlardan biri negram dorisidir. U asosan grammanfiy bakteriyalarga (ichak tayoqchasi, protey va boshqalar) bakteriostatik ta'sir etib, ularning ko'payishini to'xtatadi. Sulfanilamid va antibiotiklarga chidamli bo'lgan mikroorganizmlarga ham ta'siri sezilarlidir. Shuning uchun ham negram ko'pincha boshqa antibakterial preparatlar samarasiz bo'lganida, ichak va peshob yo'li yallig'lanishida keng miqyosda qo'llaniladi.

Preparatlari:

Furadonin (Furadoninum). N-(5-Nitro-2-Furfurilidon)-1-aminogidan-toin. 0, 05 va 0, 1 g dan tabletka holida chiqariladi. Buyurilishi: kuniga 0, 1-0, 15 g 3-4 marta ichish uchun beriladi. Yuqori dozasi ichish uchun: bir martalik 0, 3 g, kecha-kunduzlik-0, 6 g.

Furazolidon (Furazolinum). N-(5-Nitro-2-furfuriliden-3-aminooksizolidon-2). 0, 05 g dan tabletka va granula holida chiqariladi. Buyurilishi: ovqatdan keyin 0, 1-0, 15 g dan kuniga 4 marta (dizenteriya, toksikoinfektsiya) beriladi.

Furatsilin (Furacilinum). N-5-Nitrofurfurola semikarbazon. 0, 02 g dan tabletka holida sirtga qo'llash uchun, 0, 1 g dan ichish uchun, 0, 2 % 25 g dan surtma shaklida chiqariladi. Buyurilishi: suvli (1:5000), spirtli (1:1500) eritmasi va 0, 2 % surtma sirtga qo'llash (chayish, yuvish, surtish) uchun; 0, 1 g tabletkadan bir kecha-kunduzda 4-5 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Nitrofural (Nitrofural). Nitrofuran unumi. Tabletkada 0, 1; 0, 02 g dan eritma tayyorlash uchun chiqariladi. Terining yiringli yaralarini (kuyish, chipqon, osteomielit va b) yuvish uchun sirtga ishlatiladi.

Furagin (Furaginum). N-(5-Nitrofuril-2)-akrilidenaminogidantoin. 0,05 g dan tabletka holida chiqariladi. Buyurilishi: 0, 1-0, 2 g dan kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Nitroksolin (5-NOK) (Nitroxolinum). 5-nitro-8 oksixinolin. 0, 05 g dan tabletka holida chiqariladi. Buyurilishi: ovqat bilan 0, 05-0, 1 g dan kuniga 3-4 marta ichish uchun beriladi. Yuqori kecha-kunduzlik dozasi 0,8 g.

Xiniofon (Chinifonum). 7-yod-8-oksi-5-xinolinsulfokislota (3 qism) va natriy gidrokarbonat (1 qism) aralashmasi. 0, 25 g dan tabletka holida chiqariladi. Buyurilishi: 0, 5 g dan kuniga 3 marta ichish uchun beriladi. Yuqori dozasi: bir martalik 1 g, kecha-kunduzlik-3 g.

Tsiprofloksatsin (Ciprofloxacin). 1-Tsiklopropil-6-ftor-1, 4-digidro-4-okso (1-piperazinil)-3-xinolinkarbon kislota. Tabletkada 0, 25; 0, 5 va 0, 75 g dan; 0, 2 % eritmasi flakonda 50-100 ml infuziya uchun; 1 % eritma ampulada 10 ml dan chiqariladi. Tabletkalari kasallikni turiga qarab (0, 25; 0, 5 g) kuniga 2 marta, ampuladagi eritmalari venaga (0, 1 g dan) yuboriladi.

Ofloksatsin ((Ofloxacin). 9-ftor-2, 3-digidro-3-metil-10-(4-metil-1-piperazinil)-7-oksi-7N-pirido (1, 2, 3-de) 1, 4-benzoksazinkarbon kislota. Tabletkada 0, 2 g dan chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 2 marta beriladi.

Xinoksidin (Chinoxydinum). 1, 4-Di-N-okis-2, 3-bis-(atsetoksimetil) xinoksalin. 0, 25 g dan tabletka holida chiqariladi. Buyurilishi: ovqatdan keyin ichish uchun 0, 25 g dan kuniga 3 marta.

Nevigramon (Nevigramonum). 1-etil-7-metil-1, 8 naftiridin 3-on-3 karbon kislota. 0, 5 g dan kapsula shaklida chiqariladi. Buyurilishi: 0, 5-1 g dan kuniga 3-4 marta ichish uchun beriladi.

Xulosa.

Bu guruhga kiruvchi dori vositalari asosan mikroorganizmlarga ta'sir qiladi. Nitrofuranlar 5-nitrofuranning ikkilamchi unumlari bo'lib, nitroguruh hisobiga bir qator mikroorganizmlarga bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi. 8-oksixinolin unumlariga kiruvchi preparatlar o'z farmakologik ta'siri bo'yicha nitrofuran va sulfanilamidlarga yaqin turadi. Ular ham grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga bakteriostatik ta'sir etadi. Bundan tashqari, parazitlarga va patogen zamburug'larga ham ta'sir ko'rsatadi.

Naftiridin unumlari guruhiga taaluqli ancha kuchli antibakterial ta'sirga ega bo'lgan preparatlar. U asosan grammanfiy bakteriyalarga (ichak tayoqchasi, protey va boshqalar) bakteriostatik ta'sir etib, ularning ko'payishini to'xtatadi. Bu dori vositalari bilan tanishganimda dorilar haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ldim, ular qollash usullari, qo'llash uchun moneliklar, dozalari, ta'sir mexanizmi, nojo'ya ta'sirlarini o'rgandim.